



## YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6550856>

**Bo'ronov Feruzjon Qahramon o'g'li**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy  
Universiteti Tarix fakulteti Davlat va fuqarolik  
jamiyati institutlari boshqaruvi 1-kurs magistri*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining mustaqillik yillaridagi olib borilgan ishlari va rejalari haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Yangi O'zbekiston, yoshlarga oid davlat siyosati, iqtidorli yoshlar, ma'naviy barkamollik, uchinchi renessans.*

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil qilindi. Hududlarda "Loyihalar fabrikasi" ish boshladi.

Yosh avlodning sog'lom o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "besh muhim tashabbus"ni joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy IT-parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari, mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlari — "Prezident maktablari", "Temurbeklar maktabi", "Ijod maktablari" bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda.



Yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish maqsadida 2021-yil mamlakatimizda "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb e'lon qilindi.

Yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, shuningdek, mamlakatimizda 2020-yil dekabr oyida tashkil etilgan O'zbekiston yoshlari forumida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga va xalqimizga Murojaatnomasida qayd etilgan yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bilan bog'liq vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

a) quyidagilarni nazarda tutuvchi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq:

yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy bazani takomillashtirish;

mamlakatda xavfsizlik, ekologik barqarorlik, adolat va teng huquqlilikni ta'minlashda yoshlarning rolini oshirish;

yoshlar uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, ular o'rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog'lom turmush tarzini mustahkamlash;

ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning sifatli ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish;

yoshlarni ona Vatanga, oilaga, mustaqillik g'oyalariga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;

yoshlarga munosib mehnat sharoitlarini yaratish va ularning mehnatga oid qonuniy huquqlarini himoya qilish orqali ularning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish;

yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlashga qaratilgan "besh muhim tashabbus"ni amalga oshirish;

ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bor yoshlar, mehribonlik uylarida tarbiyalangan, yetim bolalar, boquvchini yo'qotgan va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash;

salohiyatli yosh kadrlarni qo'llab-quvvatlash va davlat fuqarolik xizmatiga tayyorlash, ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash;



yosh xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ularning jamiyatdagi mavqeyini yanada oshirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

yoshlarning g'oya, taklif va tashabbuslarini ro'yobga chiqarish maqsadida yoshlar jamoat tashkilotlari hamda volontyorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

xorijdagi vatandoshlar bilan ishlash, xalqaro yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlik qilish va xalqaro doirada tajriba almashish tizimini yanada takomillashtirish;

b) O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2021-2022-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" (keyingi o'rinlarda — "Yo'l xaritasi") 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilansinki, Konsepsiya erishilgan natijalardan kelib chiqqan holda, 2023-yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan tegishli "yo'l xaritalari" asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

2. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda: 2022-yildan boshlab har yili 1-dekabrqa qadar tegishli "Yo'l xaritasi" bajarilishi yakunlarini batafsil o'rganish asosida keyingi yil uchun "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin; tegishli "yo'l xaritalari"ning bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib borsin.

3. Ushbu qarorda nazarda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirish manbalari etib quyidagilar belgilansin: O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari; jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari; xalqaro moliya tashkilotlari, xorijiy davlatlar va boshqa donorlar kreditlari (qarzlar), grantlari va texnik ko'maklashish mablag'lari; qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, mas'ul vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar rahbarlariga — Konsepsiya va "Yo'l xaritasi"da nazarda tutilgan tadbirlarni o'z vaqtida, sifatli va to'liq bajarish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklatilsin.

5. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va O'zbekiston Milliy axborot agentligiga ommaviy axborot vositalarida ushbu qarorning maqsad va vazifalarini keng yoritish bo'yicha chiqishlar hamda mavzuga oid ko'rsatuvlar tashkil etish tavsiya etilsin<sup>1</sup>.

Respublikamizda yoshlar muammolarini samarali hal etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.01.2021 yildagi 23-son.



yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, yoshlar siyosatini yuritishda zarur vakolat va moliyaviy resurslarga ega bo'lgan **"Yoshlar ishlari agentligi"** tashkil etildi. Agentlik yoshlarga oid davlat siyosatini yuritadigan davlat organi sifatida ular manfaatlarini himoya qilish, hukumat, vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan qabul qilinayotgan qaror, dastur va loyihalarda yoshlar manfaatlarini aks ettirish, nodavlat notijorat tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash kabi vazifalarni amalga oshiradi.

**"Milliy fiklanishdan milliy yuksalish sari" shiori ostida ulkan bunyodkorlik va islohotlarni keng xalq ommasi orasida targ'ib qilish**, bunga ziyolilar, ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot namoyandalarini safarbar etishga qaratilgan kompleks targ'ibot dasturini ishlab chiqish hamda amalga oshirish yuzasidan Hamkorlik chora-tadbirlari rejasi tasdiqlandi. Bundan ko'zlangan maqsadlardan biri yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarini shakllantirishdan iborat, deb belgilandi.

Mazkur yo'nalishlarda Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi tomonidan "Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashgan mutafakkirlar" mavzusida buyuk ajdodlarimizning vatanparvarlik, millatparvarlik va taraqqiyparvarlik sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy merosini yoshlar ongiga yetkazish, Yoshlarni zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishi, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lishiga ko'maklashish va boshqa shu kabi mavzulardagi loyihalar uchun tanlov elon qilib, davlat grantlari ajratish yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, **dunyo tamadduni rivojiga ulkan hissa qo'shgan o'tmish allomalarining ilmiy merosi, hayot yo'lini bugungi yosh avlodga ochib beruvchi turkum ko'rsatuvlar tayyorlab efirga uzatish** bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi<sup>2</sup>.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda.

<sup>2</sup> Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi.



Joylarda, avvalambor chekka hududlarda istiqomat qilayotgan ko'p sonli yoshlarning o'z iqtidor va iste'dodini ro'yobga chiqarishlari, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun keng sharoitlar yaratish, ularni turli zararli illat va yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish kabi muhim vazifalarni hal etishda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati O'zbekiston yoshlarini buyuk maqsadlar sari birlashtiradigan va safarbar etadigan ommaviy harakatga aylana olmaganini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Shu sababli, mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi.

2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bog'liq bir qator yangi va muhim vazifalarni belgilab berganini alohida qayd etish joiz<sup>3</sup>

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi. 2022-2026.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari.
4. Hozir.org
5. [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Philip\\_Prowse#/search](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Philip_Prowse#/search)

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.07.2017 yildagi PF-5106-son